



## CHANG OVOZI SEHRINING SOHIBASI USTOZ FAZILAT SHUKUROVANI IJODIY FAOLIYATIGA BIR NAZAR

**Muallif:** Mehrangiz Narzullayeva <sup>1</sup>, Axadjon Mamadaliyev <sup>2</sup>

**Affilyatsiya:** O'zbekiston davlat konservatoriyasi “Sholg'u ijrochiligi” yo'nalishi 1-bosqich talabasi <sup>1</sup>, O'zDK “Xalq cholg'ularida ijrochilik” kafedrasida dotsenti, Turon Fanlar Akademiyasi faxriy professori <sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14466282>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada chang cholg'usi tarixi, uning ijrochilik an'alari, ovoz akustikasi va cholg'i tarkibidagi elementlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** chang, ijrochilik, o'zbek cholg'ulari, mualliflar, bastakor, xalq, orkestr.

Chang bu shunday sozki, uning ovoz tarovati insonni o'ziga rom qiladi, ohangi esa qalbini eritib yuboradi. Chang ko'p torli tirnama, urma o'zbek cholg'usidir. Hozirgi kunda changning 75 ta tori bo'lib diapazoni kichik oktava soldan 3-oktava sol diezgacha oraligini tashkil etadi. Har bir orkestr va ansambllarda chang sozi muhim o'rin egallaydi. Zero, musiqashunos iqtidorli sozanda Darvesh Ali Changiy o'z risolalarida changni “sozlar kelinchagi” deb atagan. Chang nafaqat o'zbek xalq cholg'usi, balki Tojikistonda ham mavjud. Boshqa ko'plab xalqlarning changsimon cholg'ulari mavjud. Jumladan: Simbal (Vengriya, Polsha, Ukraina, Belarus xalqlari cholg'usi); Santur (Eron, Kavkaz orti xalqlarida uchraydigan cholg'u); Gusli (Rus xalq cholg'usi); Kokli (Latish xalq cholg'usi); Kanteli, kankles (Litva xalq cholg'usi); Kannel (Estoniya xalq cholg'usi); Koto (Yaponiya xalq cholg'usi); Yochin, Yatag (Buryatiya xalq cholg'usi) [1].

Chang qachon ixtiro qilingani noma'lum, ammo arxeologik topilmalarida tasvirlangan arfa (chang), bu cholg'uning qadimiyigidan bayon qiladi. Qadimda chang arfasimon bo'lgan va keyinchalik takomillashtirilgan.

O'zbekistonda ko'plab ustoz-san'atkorlar ushbu chang cholg'usi ustida ijodiy faoliyat yuritishgan. Shunday ustozlardan biri mohir sozanda, o'qituvchi, dirigor, birinchi changchi ayol, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent, konservatoriya faxriy professori Fazilat Shukurovadir. Fazilat Shukurova 1946-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on tumani Payshanba qishlog'ida tavallud topgan. Uning otasi Shukurullo Abdullayev musiqa san'atining bilimdoni bo'lib, puflama cholg'u ijrochisi bo'lgan. Bobosi esa mashhur xalq tabibi bo'lgan va shu sababli qiz tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Onasi o'ta mehnatkash, irodali, sezgir ayol bo'lgan va shu hislatlarini qiziga meros qilib qoldirgan.

Fazilat Shukurova boshlang'ich musiqa ta'limini Samarqand bilim yurtida olgan. 1960-1961-yillarda iqtidorli yoshlarni izlab topish maqsadida Toshkent davlat

konservatoriya rektori, bastakor, professor Muxtor Ashrafiy boshchiligidagi ijodiy jamoa Samarqandga keladi. Ushbu tashrifdan maqsad respublika professional musiqa ta'limini rivojlantirish uchun milliy kadrlarni jalb etish edi va bu maqsadga erishilgan holda poytaxtga bir guruhlarini taklif qilinadi. Ular orasida 14 yoshli Fazilat Shukurova ham bor edi. Muxtor Ashrafiyning o'zi uni konservatoriyaning tayyorgarlik kurslariga olib boradi. Fazilat Shukurova keying ta'lim ya'ni orkestr, ansambl, yakkanavoz, fortepiano bilan doira jo'rligida ijrochilik sirlarini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Fozil Xarratovdan o'rganadi. Chang yo'nalishini F.M.Xarratov va A.O.Odilov, dirijorlik yo'nalishini esa F.V.Nazarovlar rahbarligi asosida tahsil oladi [2].

1962-1967 yillar orasida "chang" hamda "orkestr dirijorligi" mutaxassisligini yuqori baholar bilan tamomlab, M.Qori Yoqibov nomidagi O'zbek davlat filarmoniyasiga yakka changchi-sozanda lavozimiga ishga qabul qilinadi va turli xil gastrol safarlarida bo'ladi. Xususan: Vengriya, Polsha, Molgoliya, Finlandiya, Suriya, Mali, Germaniya, Hindiston. Xamdo'stlik mamlakatlar: Rossiya, Ukraina, Tojikiston, Ozarbayjon, Qirg'iziston, Belorussiya, Estoniya va boshqa mamlakatlar bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari yakka changda asarlar ijro etib, radio fonotekasiga yozdirib boradi. Orkestr bilan birga I.Zinovichning "Beloruscha raqsi", Y.Bramsning "Vengercha raqsi", D.Zokirov tomonidan yaratilgan chang va orkestr uchun o'zbek xalq kuyi "Ishonma" hind kuylari asosida "Shomiri" asari va bir qancha xalq kuylarini yozishga muvaffaq bo'ladi.

Kompozitor O'zbekiston xalq artisti Ibrohim Xamrayev o'zining chang va orkestr uchun yozgan 1-konsertini Fazilat Shukurovaga bag'ishlab yozadi [3]. Mohir sozanda bu konsertni meyoriga yetkazib ijro etadi va asar magnit tasmaga yozib olinadi. Yuqori salohiyatga ega, o'z kasbining ustasi Fazilat Shukurova ijrochilik jarayonida zamonaviy va an'anaviy musiqa ijrochilik san'atini birdek namoyish eta oldi. U nafaqat mohir sozanda, balki tajribali ustoz, yaxshi pedagog ham hisoblanib, bu borada ham ko'p muvaffaqiyatlarga erishgan. U 1980-yildan beri konservatoriyada dirijorlikdan talabalarga saboq bergan va konsert-ijrochilik faoliyatini ham olib borgan. 1988-yilda changchi, dirijor, professor Rustam Ne'matov bilan birgalikda mumtoz kuylardan tashkil topgan "Yangra sozim" to'plamini yaratishdi, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Kompozitorlarning e'tibori nega kam", "Ustozni eslab", "Xarratovlar sulolasi" nomli bir qancha maqolalarini yozdilar. Fazilat Shukurova 40 yildan ko'proq vaqt mobaynida "Xalq cholg'ulari ijrochilik" kafedrasida ustozlik qilganlar va hozirgi kungacha o'z bilimlarini biz talabalarga darig' tutmay o'rgatib kelmoqdalar. Ularning izdoshlari, shogirdlari ko'p. Jumladan: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, dotsent Komiljon Shermatov, dotsent Axadjon Mamadaliyev, hozirda taxsil olayotganlardan Moxigul Kozimjonova, Buvrajab Asadova, Diyora Xotamkulova, Marjona Yoqubova va ko'plab boshqa opalarimiz misol bo'la oladi. Biz ustozimiz Fazilat Shukurovani chang sozini mahorat bilan ijro eta olgan, o'z kasbini sevgan serqirra ijodkor, elparvar inson deb atasak mubolag'a bo'lmaydi. Shu tufayli ham ustozimizning bilimlarini, ijodiy yo'llarini o'rganish biz yoshlarning asosiy vazifalarimizdan biridir. Zero, biz ham ustozimizga, opalarimizga mos izdosh bo'lmog'imiz darkor.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Haydarova Rozaxon. "An'anaviy cholg'u ijrochiligi" o'quv-qo'llanma. 2021 yil.

Mamadaliyev Axadjon. "Fazilat Shukurova 1-changchi ayol". // "Ijrochilik san'atida zamonaviy muammolar" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar to'plami. 2015 yil.

Muallifning Fazilat Shukurova bilan bo'lgan suhbatidan. 12.11.2024 yil.

